LINGVOPOETIK IFODA VOSITALAR VA ULARNING GYOTE ASARLARIDAGI BADIIY FUNKSIYASI

Mashhura Xabibullayevna Nazarova,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nmashxura@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Gyotening badiiy asarlaridagi lingvopoetik ifoda vositalari - metafora, epitet, o‘xshatish, parallelizm va antitezalar - tahlil qilinadi. Tadqiqotda R. Jakobson, Yu. Lotman, V. Vinogradov, M. Riffaterre va P. Ricœurlarning lingvopoetika haqidagi nazariy qarashlariga tayanilgan. Gyote asarlarida inson ruhiyati, tabiat va estetik tafakkur uyg‘unligi lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil etilib, til vositalarining estetik vazifasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, badiiy obraz, estetik ta’sir, metafora, parallelizm, poetik til, Gyote, Werther, Faust, ruhiy kechinma.

Lingvopoetika - bu tilshunoslik va adabiyotshunoslik tutashgan soha bo‘lib, badiiy matnning til vositalari orqali estetik ta’sir yaratish usullarini o‘rganadi. Lingvopoetika so‘zning oddiy kommunikativ vazifasidan tashqari, uning badiiy-estetik imkoniyatini, hissiy energiyasini va semantik chuqurligini tahlil qiladi. Lingvopoetika tahlil markaziga badiiy tilni, ya’ni yozuvchi yoki shoirning individual uslubini qo‘yadi. Boshqacha aytganda, bu yo‘nalish badiiy asarda so‘zning qanday shaklda, ohangda, ritmda va sintaktik tuzilishda qo‘llanib, qanday badiiy ta’sir hosil qilganini o‘rganadi.

Lingvopoetika atamasi XX asr tilshunosligida shakllanib, badiiy matnning til vositalari orqali estetik ta’sir yaratish mexanizmlarini o‘rganadigan ilmiy yo‘nalish sifatida qaror topgan. Ushbu yo‘nalishning shakllanishi, avvalo, rus va g‘arb tilshunoslik maktablarida ilgari surilgan poetik nazariyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Lingvopoetika tushunchasini ilmiy muomalaga birinchi bo‘lib rus-amerikalik tilshunos R. Jakobson kiritgan. U o‘zining “Linguistics and Poetics” nomli asarida tilning olti asosiy funksiyasidan biri sifatida poetik funksiyani ajratadi. Jakobsonning fikricha, poetik funksiya xabarning mazmuniga emas, balki uning ifoda shakliga, ya’ni so‘zning ohangi, ritmi, tovush uyg‘unligi va sintaktik tuzilishiga e’tibor qaratadi [1]. [1,87-b] Shu tarzda olim tilning estetik mohiyatini tahlil qilish zaruratini ilmiy asosda ilgari surdi va lingvopoetika uchun nazariy poydevor yaratdi.

Jakobson g‘oyalarini davom ettirgan Yu. Lotman lingvopoetikani semiotik tizim sifatida talqin etib, badiiy matnni shunchaki axborot uzatuvchi emas, balki yangi ma’no yaratuvchi tizim deb hisoblaydi. Uning fikricha, har bir badiiy asar o‘zining ichki tuzilishi, ritmi va so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlar orqali estetik ma’no hosil qiladi. Shu bois lingvopoetik tahlil matnning sathdagi ma’nosidan tashqari, uning yashirin semantik qatlamlarini ochishga qaratiladi [2].[2,54-b] M. Riffaterre lingvopoetikani poetik semantika nuqtayi nazaridan tahlil qilib, badiiy matnni o‘quvchini so‘zning bevosita ma’nosidan yashirin semantik qatlamlarga olib kiruvchi estetik tizim sifatida baholaydi. [3, 91-b.] P. Ricœur esa lingvopoetikani til va tafakkur o‘rtasidagi estetik ko‘prik sifatida izohlaydi hamda metaforani inson tafakkurining yaratuvchan kuchi deb talqin etadi [4, 132-b.].

Rus tilshunosligi vakili V. Vinogradov o‘zining “О языке художественной литературы” asarida badiiy nutqni til tizimining alohida estetik shakli sifatida talqin qiladi. U lingvopoetikani adabiy uslubshunoslik bilan bevosita bog‘lab, poetik tilni “so‘zning badiiy obrazga aylangan shakli” sifatida ta’riflaydi [5, 63-b.]. O‘zbek adabiyotshunosligida esa N. Jo‘raqulov va G‘. Yoqubovlarning asarlarida lingvopoetik tahlil matnning semantik, fonetik va ritmik xususiyatlarini qamrab oluvchi ilmiy yondashuv sifatida izohlanadi [6, 7].

Yuqoridagi olimlar qarashlaridan kelib chiqadiki, lingvopoetika - bu tilning badiiy funksiyasini, ya’ni so‘z orqali estetik ta’sir yaratish qonuniyatlarini o‘rganadigan kompleks ilmiy yo‘nalishdir. U badiiy asar tili orqali muallifning estetik dunyoqarashi, milliy tafakkuri va individual uslubini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, lingvopoetika badiiy so‘z san’atining ilmiy talqini bo‘lib, so‘z, ma’no va hissiyotning uyg‘unlashuvi orqali go‘zallik yaratish jarayonini tahlil qiladi.

Gyote ijodida lingvopoetik vositalar shaxsiy kechinmalar, tabiat manzaralari va falsafiy mushohadalar orqali ifoda topgan. Uning asarlarida so‘z oddiy aloqa vositasi emas, balki badiiy-estetik mazmun yaratuvchi hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolaning maqsadi - Gyote asarlarida qo‘llangan lingvopoetik vositalarning badiiy funksiyasini tahlil qilishdir.

Gyote lingvopoetik mahorati shundaki, u so‘zning tashqi shakli bilan ichki ma’nosi o‘rtasida mukammal uyg‘unlik yaratadi. Uning har bir badiiy ifodasi orqasida inson ruhining ichki harorati, hayot falsafasi va estetik qarashlari mujassam. Muallifning tili nafaqat voqeani tasvirlaydi, balki uni his ettiradi, o‘quvchini bevosita ruhiy kechinmaga olib kiradi. Shu bois Gyote asarlari lingvopoetika nuqtayi nazaridan so‘z, ohang va obraz uchligi asosida qurilgan estetik tizim sifatida qaraladi.

“Faust” asarida muallif metafora va antitezalardan keng foydalanib, ezgulik va yovuzlik, nur va zulmat, ruh va tana o‘rtasidagi abadiy kurashni badiiy shaklda ifodalaydi. Masalan, “Nur ichidan zulmatga, zulmatdan nurga qaytish” g‘oyasi insonning ichki o‘zgarishi, ruhiy yuksalish jarayonining ramziga aylanadi. Bu yerdagi lingvopoetik vositalar - metafora, ramz va sintaktik parallelizm - matnga falsafiy chuqurlik va musiqiy ohang bag‘ishlaydi.

“Yosh Verterning iztiroblari”da esa Gyote romantik ruhiyatni epitet, o‘xshatish, takror va inversiya orqali ochadi. Verterning har bir maktubida til poetik tuyg‘uga aylanadi: tabiat manzaralari qahramon ruhiyatining in’ikosi sifatida tasvirlanadi. Yomg‘ir, daryo, quyosh va tog‘ obrazlari orqali muallif tabiatni ruhning badiiy metaforasiga aylantiradi. Bu esa Gyote tilidagi lingvopoetik obrazlarning psixologik funksiyasini ko‘rsatadi va ular hissiy holatni tildagi badiiy shaklga aylantiradi.

Gyotening lingvopoetik uslubi uning falsafiy tafakkuri, psixologik teranligi va estetik didini yuksak darajada aks ettiradi. Yozuvchi asarlarida badiiy obrazlar inson va tabiat, ruh va materiya, muhabbat va iztirob, nur va zulmat singari qarama-qarshi tushunchalarning uyg‘unligidan tug‘iladi. Shu bois uning poetik tili lingvopoetik nuqtayi nazardan inson ruhiyatining estetik modeli sifatida qaraladi.

Bu fikrga “Yosh Verterning iztiroblari” romanidagi quyidagi parcha yorqin dalil bo‘la oladi. Asarda yozuvchi tabiat manzaralari orqali qahramon ruhiyatining o‘zgaruvchan holatini badiiy tilda ifodalaydi:

O‘zbekcha: *Mana endi yomg‘ir sharros quyib, goh bo‘ron quturib, yer goh muzlab, goh erib yotganda, ko‘chadan ko‘ra uyda o‘tirish yaxshiroq-ku, axir, deb o ‘ylayman-da, yengil tortib ketaman. Agar ertalab quyosh charaqlab, ochiq kundan darak bersa, mana, odamlar bir-birlaridan qizg‘anadigan tag‘in bir xudo marhamati! - deb xitob qilishdan o ‘zimni tiyolmayman. ! [8 fevra])*

Nemischa: *Wenn's nun recht regnet und stöbert und fröstelt und taut: ha! Denk' ich, kann's doch zu Hause nicht schlimmer werden, als es draußen ist, oder umgekehrt, und so ist's gut. Geht die Sonne des Morgens auf und verspricht einen feinen Tag, erwehr' ich mir niemals auszurufen: da haben sie doch wieder ein himmlisches Gut, worum sie einander bringen können! [8 Februar]*

Bu satrlarda yozuvchi ob-havo holatini tasvirlar ekan, u orqali Verterning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Yomg‘ir, bo‘ron, muzlash va erish kabi tabiat hodisalari ruhiy beqarorlik, o‘zgaruvchan kayfiyat ramziga aylanadi, quyoshning charaqlashi esa umid, iliqlik va ruhiy yengillikni bildiradi. Tashqi manzara orqali ichki kechinmaning ifodalanishi Gyote poetikasiga xos tabiat–ruhiyat parallelizmini yaratadi.

Nemischa matnda fe’llarning ketma-ketligi (*regnet – stöbert – fröstelt – taut*) ritmik gradatsiya hosil qilib, tabiatning harakat dinamikasini kuchaytiradi. Shu tarzda ritm va tovush

uyg‘unligi o‘quvchiga shunchaki manzara emas, balki ruhiy tebranishni his etish imkonini beradi. O‘zbek tarjimasida esa “yomg‘ir sharros quyib, goh bo‘ron quturib” shaklida dinamik ifoda yanada tabiiy ohangda berilgan bo‘lib, bu pragmatik ekvivalentlikni ta’minlaydi. Bundan tashqari, “xudo marhamati” birikmasi asliyatdagi *ein himmlisches Gut* ifodasining milliy-madaniy moslashtirilgan ko‘rinishidir. Bu o‘rinda tarjimon domestikatsiya usulidan foydalangan holda o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli va tabiiy obraz yaratgan. Shuningdek, parchaning umumiy ohangida antitezalar tashqaridagi bo‘ron va uydagi osoyishtalik, yomg‘ir va quyosh, sovuq va iliqlik o‘zaro qarama-qarshi, lekin uyg‘un badiiy tizimni tashkil etadi.

Shunday qilib, bu epizodda Gyote tabiat tasvirini ruhiy kechinma bilan birlashtirgan holda lingvopoetik birlik yaratadi. Tabiatdagi o‘zgarishlar qahramon kayfiyatining aks-sadosiga aylanadi, ritm, metafora, o‘xshatish va antitezalar esa asarga musiqiy ohang va estetik chuqurlik baxsh etadi. Shu jihatdan, “Yosh Verterning iztiroblari” romanining ushbu parchasini yozuvchining lingvopoetik mahoratini, ya’ni inson ruhiyatini badiiy til orqali ifodalash san’atini namoyon etuvchi yorqin namunasi deb baholash mumkin.

Gyote poetikasida inson ruhiyati va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi tabiat manzaralari orqali inson ichki dunyosining o‘zgaruvchan holatini, ruhiy tebranishlarini badiiy tilda ifodalaydi. “Yosh Verterning iztiroblari” romanidagi quyidagi parcha bu fikrni aniq tasdiqlaydi: **O‘zbekcha:** *“Tabiat kuzga bo‘yin ega boshlaganidanoq, mening yuragimda va atrofimda ham hazinlik boshlanadi.”[4 sentabr]* **Nemischa:** *Wie die Natur sich zum Herbste neigt, wird es Herbst in mir und um mich her. [4 September].*

Nemischa matnda *“Herbst in mir und um mich her”* iborasi ikki qatlamli ma’noga ega: “menda kuz” - ichki ruhiy holat, “atrofimda kuz” - tashqi manzara. Ushbu parallel tuzilma muallif uslubidagi uyg‘unlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, “Herbst” so‘zining ikki bor takrorlanishi matnga ritmik barqarorlik beradi va ruhiy kechinmani tovush orqali his etish imkonini yaratadi.

O‘zbek tarjimasida *“Tabiat kuzga bo‘yin ega boshlaganidanoq”* jumlasi asliyatdagi *sich zum Herbste neigt* ifodasining semantik nozikligini to‘liq saqlaydi. *“Bo‘yin egmoq”* ifodasi kuzning boshlanishini jonlantirib, tabiatni go‘yo inson singari his qiluvchi mavjudot sifatida tasvirlaydi. Bu yerda personifikatsiya vositasi orqali tabiat ruhiylashtiriladi, natijada tabiat va inson o‘rtasida badiiy bog‘liqlik vujudga keladi.

“Yuragimda va atrofimda ham hazinlik boshlanadi” degan qism esa parallelizm va takror orqali ichki va tashqi olam o‘rtasidagi uyg‘unlikni yanada kuchaytiradi. Ruhiy holat va tabiat manzarasi o‘zaro tayanadi, bir-birini to‘ldiradi. Shu jihatdan, Gyotening bu ifodasi inson ruhiy holatining badiiy modelini yaratadi - kuz faqat tabiatdagi mavsumiy o‘zgarish emas, balki qalbdagi tinchlik, iztirob va sokin tushkunlikning metaforasidir.

Shunday qilib, ushbu parcha Gyote lingvopoetik uslubining muhim xususiyatini - inson ruhiyati va tabiat go‘zalligining estetik uyg‘unligini yaqqol namoyon etadi. Yozuvchi til vositalari - metafora, personifikatsiya, parallelizm va ritmik takrorlar orqali insonning ruhiy kechinmalarini tabiat manzarasi bilan bir butun tarzda tasvirlaydi. Lingvopoetika tilning badiiy funksiyasini, ya’ni so‘z orqali estetik ta’sir yaratish qonuniyatlarini o‘rganadigan kompleks ilmiy yo‘nalishdir. U badiiy asar tili orqali muallifning estetik dunyoqarashi, milliy tafakkuri va individual uslubini aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Jakobson, R. – Linguistics and Poetics. – Cambridge: MIT Press, 1960.
2. Lotman, Yu. M. – Struktura xudozhestvennogo teksta. – Moskva: Iskusstvo, 1970.
3. Riffaterre, M. – Semiotics of Poetry. – Bloomington: Indiana University Press, 1978.
4. Ricœur, P. – The Rule of Metaphor. – London: Routledge, 1977.
5. Виноградов, В. В. – О языке художественной литературы. – Москва: Наука, 1959.

6. Jo‘raqulov, N. – Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
7. Yoqubov, G‘. – Badiiy matn tahlilida zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2018.
8. Goethe, J.W. – Die Leiden des jungen Werther. – Leipzig, 1774.
9. I.V.Gyote. Yosh Verterning iztiroblari. Roman, nemis tilidan Yanglish Egamova tarjimasi. Toshkent, «Yoshlar nashriyot uyi» nashriyoti, Toshkent, 2018.